



AMIR TEMUR SALTANATINING HARBIY HOLATI

Juliboyev Alimardon Abdulmajid o'g'li

QDPI Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk sarkarda, davlat arbobi, Temuriylar sulolasining asoschisi - Amir Temurning qo'shin tuzilishi, jang taktikasi va boshqaruvi haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari Sohibqironning jang vaqtida navkar va amirlarning qay tarzda harakat qilishi, majburiyatlari va imtiyozlari haqidagi o'g'itlari joy olgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Movarounnahr, Xuroson, Xorazm, Mo'g'uliston, Mozandoron, Temur Tuzuklari.

Amir Temur [1336-1405] – Movarounnahr, Xuroson va Xorazmni birlashtirib, insoniyat tarixidagi katta imperiyalardan biriga asos soldi. Amir Temur davlatni 1370-1405-yillarda boshqaradi, o'tgan 35 yil ichida davlat hududini kengaytirishga va chegaralar xavfsizligini ta'minlashda Sohibqiron asosan, qo'shinga tayanadi. Shuning uchun ham qo'shinni saqlash, jangovorligini ushlab turish, zamonasining eng yangi qurollari bilan ta'minlashga alohida e'tibor beradi. Buyuk lashkarboshi va harbiy tashkilotchi sifatida Temurbek o'ta intizomli qo'shin tuzishga, muhoraba chog'ida qo'shin qismlaridan san'atkorona boshqarishga, jang taqdiri hal bo'ladigan joylarga harbiy kuchlarni o'z vaqtida ustalik bilan yo'llashga, har qanday to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bosib o'tishga, armiyadagi jangovor ruhni kerakli darajada ushlab turishga muyassar bo'ldi. Sohibqiron turk-mo'g'ul xalqlar, xususan Chingizxon lashkari tuzilishini, ularning jang olib borish amallarini atroflicha



o'rganib, tahlil qiladi va zarur o'zgartirishlar kiritadi. Temurbek barpo armiyaning tuzilishi Chingizxon tuzgan qo'shin tizimi va tuzilishiga ma'lum darajada yaqin bo'lsa-da, biroq quyidagi muhim jihatlari bilan farqlanar edi:

1. Chingiziylar qo'shini yalpi majburiyat asosida harbiy xizmatga chiqariladigan xalq lashkaridan iborat bo'lgan holda, Temurbek armiyasi umumxalq xarakteriga ega emas edi.
2. Chingizxon davrida qo'shin asosini ko'chmanchi omma tashkil qilgan edi. Temurbek qo'shiniga oliy bosh qo'mondon ko'rsatgan aniq talabga binoan chorvadorlar qatori kosibchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan mashg'ul o'troq aholidan ham sezilarli miqdorda askar olingan.
3. Temurbek qo'shinida harbiy kuchlarning asosini tashkil qiluvchi otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalardan tuzilgan qismlar ham anchaginabo'lgan.
4. Temurbek Sharqda birinchilardan bo'lib o'z armiyasiga o't sochar qurol, ya'ni to'p - ra'dni olib kirdi.
5. Sohibqiron Tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi piyodalardan tuzilgan maxsus harbiy qismlarni tashkil qildi.
6. Temurbek jahon harb san'ati tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida yetti qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etdi.
7. Temurbek armiyasida ayollardan tuzilgan bo'linmalar bo'lib, ular jang chog'i erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalarini ko'rsatgan[1]. Temurbek qo'shini tarkibini Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Xuroson, Eron, Badaxshon, Mo'g'uliston, Xorazm, Mozandaron singari yerlardan yig'ilgan askarlar tashkil qilar edi. Unda muntazam qo'shinga xos bo'lgan ko'pgina belgilar mavjud: qo'shin son jihatdan aniq va puxta tashkil qilingan, uning jangovor tartibi – yasol jangdan- jangga takomillashib borgan, armiya o'z zamonasining ilg'or qurol va texnikasi bilan qurollangan, aynan bir turdagi qurol-yarog', aslaha-anjom bilan ta'minlangan, qismlar bir-biridan kiyim boshi, tutgan bayroq yoki tug'orqali ham farqlangan. Bunday ajralib turish jang paytida qo'shinni boshqarishda juda qo'l kelgan. Dushman mudofaasini turli usullar yordamida barbod qilish,



gʻanim tomonining mudofaa inshootlariga qoʻqqisdan kuchli zarba berish, zabt etilgan mamlakatning boshliqlarini va lashkarboshilarini hibsga olish, yov kuchlarini iloji boricha keng qamrovda qurshab olish, uning qishloq, shahar, viloyatlarini birin-ketin fath etish, dushmani batamom yakson etgunga qadar taʼqib qilish, fatx boʻlgan yurtlarni boshqarish uchun ishonchli vakillarni tayinlash singari strategik maqsadlarni koʻzlab ish yuritish Temurbekka koʻplab zafarlar olib keldi. Taktika jihatdan Temurbek armiyasi oʻziga xos xususiyatlarga ega edi. Qoʻshin yetti qism – qoʻlga ajratilgan, razvedka aʼlo darajada yoʻlga qoʻyilgan, qismlarning jang maydonida hamda yurish vaqtida talab darajasida harakat qilishi uchun zarur tadbir va rejalar ishlab chiqilgan. Temurbek oʻnlik, yuzlik, minglik hamda tuman qoʻmondonlarini tanlash masalasiga bevosita rahbarlik qilgan. Sohibqironning harbiy sanʼat rivojiga qoʻshgan ulkan xizmatlaridan yana biri – qoʻshin qanotlarini jang chogʻida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha gʻanim kuchlarini yon tomondan aylanib oʻtib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism – qunbulning joriy etilishidir[2]. Temur Tuzuklarida qoʻshin jangchilarining qurol-yarogʻi batafsil tasvirlangan: „Shunday buyruq berdimki, yurish vaqtida oddiy askarlardan har oʻn sakkiz kishi oʻzi bilan birga bir chodir olsun, har bir askar ikki ot, bir kamon, bir sadoq oʻqdon, bir qilich, arra, bigiz, bir qop, juvoldoʻz, bolta, oʻnta igna va orqaga osiladigan charm xalta olsun. Bahodirlardan har besh kishi bir chodir olsun. Har biri bitta oddiy temir sovut, dubulgʻa, bir qilich, sadoq, kamon va beshta ot olsun. Yuzboshilardan har biri bir chodir, oʻnta ot, zirih, qilich, sadoq, kamon, gurzi, choʻqmor, dubulgʻa olsun. Mingboshilardan har biri bir chodir, bir soyabon, qurol-aslahadan – javshan, dubulgʻa, nayza, qilich, sadoq, oʻq-yoydan koʻtarganicha olsun. Birinchi amir bir chodir, bir oʻtov, bir juft soyabon, qurol-aslahadan shu miqdorda olsinlarki, qoʻl ostidagilarga ham bergudek boʻlsin. Birinchi amir bir yuz oʻn ot, ikkinchi amir bir yuz yigirma, uchinchi amir bir yuz oʻttiz, toʻrtinchi amir bir yuz qirq ot, amir ul-umaroga yetguncha tartib shunday boʻlsin. U esa oʻzi bilan birga uch yuzdan ka mot olmasin. Piyodalar boʻlsa har biri oʻzi bilan birga bir qilich, bir kamon va koʻtarganlaricha oʻq-yoydan olsinlar. Biroq jang paytida tuzuklarda



ko'rsatganidan kam bo'lmasin. Yana amr qildimki, jangda o'zini ko'rsatib, qarshisidagi g'anim lashkarini sindirgan har bir amirning martabasini oshirsinlar. Chunonchi, Tobon bahodir To'xtamishxon bilan bo'lgan urushda ot solib, g'anim bayroqdoriga yetib oldi va dushman bayrog'ini yerga tushirdi, o'zi bir necha joyidan yaralandi. Hasadchilar va shu qahramonlikka da'vogar bo'lganlar, uning bu xizmatini mendan yashirmoqchi bo'ldilar. Lekin men uni in'omdan xoli qoldirish insofdan emas, deb bilib Tobon bahodirga amirlik darajasini berdim. So'ngra unga izzat-ikrom ko'rsatib, bayroq taqdim etdim. O'nboshi, yuzboshi va mingboshilardan qay biri dushman safini buzib, o'z qarshisidagi askar favjini sindirsa, o'nboshi bo'lsa, shahar hokimligini bersinlar. Yuzboshi bo'lsa, uni biron mamlakat hukmdori etsinlar. Bunga misol shulki, yuzboshi Barlos bahodir To'xtamishxon bilan bo'lgan urushda yov lashkari bilan yuzma-yuz to'qnashib, dushman qo'shinini sindirdi. Uni Hisori Shodmon mamlakatiga hokim etib tayinladim. Yana buyurdimkim, mingboshilardan birortasi qarshisida turgan g'anim lashkarini sindirsa, uni mamlakat hukmdori qilsinlar. Bunga misol, Muhammad Ozod Katur jangidan biroz burun Burxon o'g'li lashkarini mag'lubiyatga uchratgan siyohpo'sh jamoasini yengib, ularni sindirdi. Muhammad Ozodni Qunduz va Ko'lob mamlakatlariga voliy qilib tayinladim. Yana hukm chiqardimki, amirlardan qaysi biri g'anim qo'lidagi biror mamlakatni fath etib, dushman tasarrufidan ozod qilsa, shu mamlakatni uch yilga unga in'om tariqasida bersinlar. Va amr qildimki, qaysi bir askar qilich chopib bahodirlik ko'rsatsa, unga in'om tariqasida chumoq, qimmatbaho toshlar qadalgan o'tog'a, kamar, turna bellik qilich, bir ot bersinlar va o'nboshilik martabasiga ko'tarsinlar. Ikkinchi, uchinchi bor bahodirlik ko'rsatsa, yuzboshi va mingboshi martabasiga yetishadi[3].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Amir Temur davrida mamlakat har tomonlama rivojlandi: san'at, madaniyat, ilm-fan yuksak darajaga yetdi. Poytaxt Samarqand shahri va ko'plab imperiya tarkibidagi hududlar qaytadan tiklandi, madrasa, masjid va bog'lar qad ko'tardi. Bunda asosiy ro'lni yurtimizni mo'g'ullar zulmidan ozod qilgan Sohibqiron va uning qo'shini bajardi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ibn Arabshoh. “Ajoib al-makdur fi tarixi Taymur” 2-kitob – T.: “Mehnat”, 1992. -B.99.
2. Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy mahorati – T: “Yozuvchi”. 1996. -B.8-10.
3. Temur Tuzuklari – forschadan Alixon Sog‘uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi. T: “G‘afur G‘ulom”, 1991. -B. 82-84.